

FITONIM ASOSIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING PRAGMATIK TAHLILI

Maxmanova F. F

Qarshi Davlat Universiteti Xorijiy til va adabiyoti

tarjima nazariyasi va amaliyoti

1-bosqich talabasi

fayruzamaxmanova2@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi fitonim (o'simlik nomlari) ishtirokidagi frazeologik birliklarning pragmatik tahlili o'rganiladi. Frazeologizmlar tilning emotsional va madaniy qatlamini ifodalovchi asosiy birliklar sifatida qaraladi. Xususan, fitonim asosidagi iboralar orqali madaniy qadriyatlar, estetik dunyoqarash, va milliy tafakkur ifodalanadi. Maqolada ingliz va o'zbek tillarida keng qo'llaniladigan fitonim asosidagi bir nechta iboralar tanlab olinib, ularning semantik va pragmatik xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, bu iboralarning real kommunikativ kontekstdagi ishlatilish shakllari, ularning illokutsion kuchi, gaprovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatlarga ta'siri, madaniy va psixologik jihatlarini o'rganiladi. Tadqiqot frazeologik birliklarning faqatgina semantik emas, balki kommunikativ va madaniy funksiyalarini ham yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: frazeologizm, fitonim, pragmatika, illokutsiya, kontekst, lingvomadaniyat, metafora

Abstract: This article explores the pragmatic analysis of phraseological units involving phytonyms (plant names) in English and Uzbek languages. Phraseological expressions serve as key components of a language's emotional and cultural layers. Specifically, expressions based on plant names reflect cultural values, aesthetic perceptions, and national mentality. The paper selects several commonly used phytonym-based idioms in English and Uzbek, analyzing their semantic and pragmatic features. Furthermore, the research investigates their real usage in communicative contexts, illocutionary force, the interaction between speaker and listener, and the cultural-psychological aspects

underlying their meaning. This study aims to highlight not only the semantic structure of such idioms but also their communicative functions and cultural significance.

Keywords: phraseologism, phytonym, pragmatics, illocution, context, linguistic culture, metaphor

KIRISH

Pragmatika bugungi zamonaviy tilshunoslikda asosiy ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, til birliklarining real nutqdagi ishlatilishini, ularning maqsadga yo‘naltirilganligini, kontekstga bog‘liqligini va ijtimoiy-ma‘naviy konnotatsiyasini o‘rganadi. Bu yo‘nalish frazeologik birliklarning nafaqat semantik jihatini, balki ularga xos bo‘lgan **illokutsion kuch**, ya‘ni so‘zlovchining niyat va maqsadini ifodalashdagi imkoniyatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Til birliklarining muloqot davomida qanday qabul qilinishi, qanday ta‘sir kuchiga ega bo‘lishi va qanday konnotatsiyalarni keltirib chiqarishi ham pragmatikaning muhim tahlil obyektlaridandir.

Fitonim asosidagi iboralar — ya‘ni o‘simlik nomlari qatnashgan turg‘un birikmalar — tilning obrazli, emotsional va milliy-madaniy qatlamini tashkil qiladi. Bunday iboralar qadimiy xalq og‘zaki ijodi, tarixiy tajriba, atrof-muhit bilan bog‘liq tasavvurlar va madaniy stereotiplarning ifodasidir. Ular tilga obrazlilik, badiiylik va chuqur estetik ma‘no bag‘ishlaydi. Fitonimlar ishtirokidagi frazeologizmlar orqali insonning tabiatga munosabati, xalqning eko-dunyoqarashi hamda ijtimoiy qadriyatlarini ifodalanadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida bunday iboralar turli kommunikativ vazifalarni bajaradi: masalan, **kinoya**, **dalda berish**, **tanqid**, **ogohlantirish**, **iliqlik bildirish** yoki **ijobiy baholash**. Ularning real nutqdagi ishlatilishi jamiyatning til madaniyati, qadriyatlar tizimi va muloqot uslubini aks ettiradi. Shu bois, fitonimlar asosida yaratilgan frazeologizmlarning **pragmatik tahlili** ularning ijtimoiy funksiyalari, madaniy konnotatsiyalari va kommunikativ imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Mazkur maqola ana shunday frazeologik birliklarning nutqiy va madaniy boyligini ochib berishga, ularning semantik va pragmatik jihatlarini solishtirma yondashuv asosida tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Fitonim asosidagi iboralar misolida tilda qanday emotsional va baholovchi yuklama yuzaga kelishini, gaplovchi va tinglovchi o‘rtasidagi kommunikativ

strategiyalar qanday shakllanishini o'rganish — tilshunoslikda dolzarb masalalardan biridir.

Shu bilan birga, bugungi globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqot va til o'rganish jarayonlarida frazeologik birliklarning, xususan, fitonim asosidagi iboralarning to'g'ri talqini va kontekstda ishlatilishini anglash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bu kabi iboralar ko'pincha bevosita tarjimaga bo'ysunmaydi, balki ularning ortidagi madaniy asos, mentalitet va tarixiy ildizlarni tushunish talab etiladi. Fitonimlar ishtirokidagi frazeologizmlarning mazmuni tildan tilga farqlanishi bilan birga, ularning ifoda uslubi, illokutsion kuchi va emotsional zaminida ham sezilarli farqlar mavjud bo'lishi mumkin. Shu sababli bu turdagi birliklarni chuqur tahlil qilish, ularni turli til va madaniyat kontekstlarida solishtirish — til o'rganuvchilari, tarjimonlar va tilshunolar uchun juda dolzarb masaladir.

TAHLIL METODOLOGIYASI: Mazkur tadqiqotda **deskriptiv-tahliliy metod** asosiy ilmiy yondashuv sifatida tanlandi. Bu metod fitonim asosidagi frazeologik birliklarning mazmuni, tuzilmasi va nutqiy funksiyalarini aniqlashda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Tadqiqotning birinchi bosqichida ingliz va o'zbek tillaridan olingan frazeologik iboralar maxsus tanlab olinib, ularning asosida **frazeologik korpus** shakllantirildi. Bu iboralar lug'atlar, adabiy manbalar, tilshunoslik tadqiqotlari hamda real nutqdagi kontekstlardan (kinofilmlar, ommaviy axborot vositalari, matbuot, onlayn platformalar) jamlandi. Keyingi bosqichda tanlab olingan iboralarning **semantik** va **pragmatik** xususiyatlari chuqur tahlil qilindi. Tahlil davomida quyidagi metodlar qo'llanildi: **Frazeologik tahlil** – iboralarning ichki tuzilmasi, leksik tarkibi, obrazli asoslari, metaforik mazmuni va barqarorlik darajasi o'rganildi. Bu orqali iboralarning lug'aviy emas, balki ko'chma ma'nolari aniqlab olindi. **Pragmatik tahlil** – iboralarning nutqdagi vazifasi, **illokutsion kuchi**, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi **kommunikativ munosabatga** ta'siri aniqlab berildi. Bunda iboralarning qanday ijtimoiy va psixologik maqsadlarda qo'llanilishi ko'rib chiqildi. **Lingvomadaniy tahlil** – har bir iboraning paydo bo'lishi, xalq og'zaki ijodidagi o'rni, madaniyat, tarixiy an'analar va milliy tafakkur bilan bog'liqligi o'rganildi. Iboralarda ifodalangan qadriyatlar, tabiat obrazlari va xalqona tafakkur tahlil qilindi. **Qiyosiy tahlil** – ingliz va o'zbek tillaridagi fitonim asosidagi frazeologik birliklar o'zaro solishtirilib, ularning umumiyliklari va farqlari aniqlab berildi. Shu orqali ikki tilning lingvomadaniy tafakkuridagi o'xshash va o'ziga xos jihatlar ochib berildi. Shuningdek, ayrim iboralar misolida ularning **stilistik ohangi** (kinoya, yumor, jiddiylik, do'stona munosabat), **emotsional yuklamasi**, va **kontekstga**

moslashuvi ham ko‘rib chiqildi. Bular orqali iboralarning turli nutq vaziyatlarida qanday pragmatik funksiyalarni bajarishi aniqlashtirildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Fitonim asosidagi frazeologik birliklar har ikki tilda ham chuqur madaniy va estetik ma’no yukiga ega bo‘lib, ularning ishlatilishi xalqning tabiatga munosabati, tarixiy xotirasi va mentalitetini ifoda etadi. O‘zbek tilidagi "guldek qiz", "bodomdek ko‘zlar" kabi iboralar go‘zallik va iliqlikni ifodalasa, ingliz tilidagi "a flower in the desert" yoki "buds of May" iboralari ham tabiat obrazlari orqali ijobiy emotsiyalarni yetkazadi. Bu frazeologizmlar orqali xalqning tabiatni estetika va qadriyat manbai sifatida idrok etishi ko‘zga tashlanadi. Pragmatik tahlil shuni ko‘rsatdiki, ingliz va o‘zbek tillaridagi fitonim asosidagi iboralar faqat obrazlilik uchun emas, balki nutqda aniq kommunikativ maqsadlarni bajaradi. Masalan, "to nip in the bud" iborasi ingliz tilida muammoga barvaqt e’tibor qaratishga undasa, o‘zbek tilidagi "kurtakday yo‘q bo‘ldi" iborasi ham shunga yaqin semantik-pragmatik funktsiyani bajaradi. Bu o‘xshashliklar turli madaniyatlar orasida umumiy tafakkur mexanizmlari mavjudligini ko‘rsatadi. Qiyosiy tahlil shuni tasdiqladiki, har ikki til fitonimlarni turlicha ijtimoiy konnotatsiyada qo‘llaydi. Ingliz tilida "shrinking violet" yoki "barking up the wrong tree" iboralari ko‘proq tanqid va ogohlantirish maqsadida ishlatiladi. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida fitonimlar ko‘proq iliqlik, e’tirof va estetik baholash uchun xizmat qilsa, ingliz tilida ular kengroq illokutsion spektrga ega. Tadqiqot natijalari tilshunos olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy fikrlarni tasdiqlaydi. Jumladan, Nemetskaya olima E.M. Vereshchagin va Y.N. Kostomarovlar "Язык и культура" (1980) nomli asarlarida frazeologik birliklar madaniyatni aks ettiruvchi "lingvokulturologik birliklar" sifatida qaralishini asoslab berganlar. Ushbu tahlilda esa aynan fitonim asosidagi iboralarning o‘zbek va ingliz madaniyatlaridagi konnotativ yuklamalari, psixologik-emotsional ifodasi va kommunikativ vazifalari bu nazariyani amalda tasdiqlaydi. Umuman olganda, fitonim ishtirokidagi frazeologizmlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, bu iboralar semantik barqarorlikka ega bo‘lishiga qaramay, real nutqda turlicha stilistik va pragmatik funksiyalarni bajaradi. Ular so‘zlovchining kommunikativ niyati, kontekstdagi vaziyat, auditoriyaga bo‘lgan munosabat va madaniy zamin bilan chambarchas bog‘liq. Bunday iboralarni tahlil qilish tilshunoslar uchun nafaqat frazeologiyani ichki tizimini tushinishda, balki madaniyatlararo muloqotda aniq pragmatik moslashuvni anglashda ham foydali hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Ingliz tilidagi *"shrinking violet"* iborasi ko'pincha ijtimoiy vaziyatlarda o'zini erkin tuta olmaydigan, tortinchoq odamlarni tasvirlashda ishlatiladi. Uning semantik asosida "violet" ya'ni binafsha gulining nozik, sezgir va jimjimador obraziga asoslangan ramzi ma'no yotadi. Pragmatik nuqtai nazardan qaralganda, bu ibora kinoya ohangida qo'llanilishi mumkin: go'yoki biror insonning ijtimoiy passivligini yumshoq tanqid ostiga oladi. So'zlovchi bu orqali tinglovchiga ijtimoiy faollikni oshirishni maslahat berishi, yoki shunchaki xatti-harakatini baholashi mumkin. Bu iboraning illokutsion kuchi esa tanqidiy yoki dalda beruvchi maqsadda namoyon bo'ladi.

"Late bloomer" iborasi insonning kech rivojlanishini bildiradi. Odatda, bolaligida yoki o'smirlilik davrida o'z salohiyatini namoyon qilmagan, lekin hayotining keyingi bosqichlarida yutuqlarga erishgan shaxsga nisbatan ishlatiladi. Bu ibora pragmatik jihatdan ijobiy, umidbaxsh va motivatsion xususiyatga ega bo'lib, nutqdagi illokutsiyasi dalda berish, ijobiy baholash maqsadida bo'ladi. Bu holatda so'zlovchi shaxs auditoriyani ruhlantirish yoki shaxsiy o'sish jarayonining turlicha kechishini anglatadi.

"To nip in the bud" iborasi esa metaforik ma'noda muammoni ildiz otishidan oldin bartaraf etish, salbiy oqibatlarga olib keluvchi vaziyatni boshlanishidanoq to'xtatish zaruratini bildiradi. Pragmatik tahlilda bu ibora ogohlantirish, maslahat yoki tanqid maqsadida ishlatiladi. Bu iboraning illokutsion kuchi tinglovchiga harakat qilishni anglatadi. So'zlovchi bu orqali ijtimoiy, siyosiy yoki shaxsiy kontekstda salbiy holatlarning oldini olishni maslahat qiladi.

"Barking up the wrong tree" esa noto'g'ri yo'nalishda harakat qilayotgan, noto'g'ri shaxs yoki manbaga murojaat qilayotgan insonni tavsiflaydi. Bu ibora ingliz tilidagi real nutqda ko'pincha tanqidiy va kinoyali tarzda qo'llanadi. So'zlovchi bu orqali tinglovchini muammoning ildizini to'g'ri anglashga, yoki e'tiborni boshqa joyga qaratishga chaqiradi. Bu iboraning illokutsion kuchi ogohlantiruvchi va tanqidiydir.

"Hit the hay" esa oddiy, kundalik nutqda ishlatiladigan uyquga ketish ma'nosidagi ibora bo'lib, tarixiy jihatdan pichan ustida uxlash odatiga borib taqaladi. Pragmatik jihatdan bu ibora do'stona, norasmiy suhbatlarda ishlatiladi va ijtimoiy yaqinlik yoki ishonch ifodasi sifatida xizmat qiladi.

"As cool as cucumber" iborasi esa hissiyotlarga berilmaydigan, xotirjam shaxsni ifodalaydi. Bu ibora ham ijobiy, ham kinoyali maqsadda ishlatilishi mumkin. Pragmatik jihatdan, ibora so'zlovchining odamga nisbatan munosabatini ifodalaydi – bu hurmat,

hayrat yoki befarqlik bo'lishi mumkin. Iboraning illokutsion kuchi shunga qarab o'zgaradi.

Shuningdek, *"buds of May"* iborasi yoshlik, go'zallik va hayotning bahoriy bosqichini bildiradi. Shakespir'ning sonetlarida bu ibora yoshlikni tabiat obrazlari orqali poetik tarzda ifodalashda ishlatilgan. Pragmatik jihatdan, bu ibora estetik hayrat, muhabbat yoki sog'inch kabi tuyg'ularni ifodalash maqsadida xizmat qiladi.

"A flower in the desert" iborasi esa kamyob, noyob va qadrlanishi kerak bo'lgan inson yoki narsani anglatadi. Bu ibora nutqda yuksak baholash, ideallashtirish sifatida xizmat qiladi. Iboraning illokutsion kuchi – e'tirof, hurmat yoki havas uyg'otishdir.

"Pushing daisies" esa ingliz tilida o'limni yumshoq, eufemistik tarzda ifodalovchi ibora bo'lib, bevosita "yer ostida gullar o'smoqda" degan obraz orqali insonning vafot etganini bildiradi. Pragmatik jihatdan, bu ibora og'ir mavzuni yumshatish, kitobxonni ranjitmaslik yoki nozik mavzuda muloyimlik bilan gapirish zaruratidan kelib chiqadi. Bu iboraning illokutsiyasi esa hamdardlik yoki ehtiyotkorlikdir.

Ko'rinib turibdiki, fitonim asosidagi iboralar frazeologik tizimning semantik darajasidangina iborat emas, balki ularning pragmatik vazifalari nutqning turli kontekstlarida o'z aksini topadi. Ularning mazmuni madaniy qadriyatlar, estetik anglash, va emotsional baholash bilan boyitilgan. Shuningdek, bu iboralar orqali so'zlovchining nutqdagi strategiyasi, auditoriyaga bo'lgan munosabati va ijtimoiy vaziyatga moslashuvi namoyon bo'ladi.

XULOSA

Fitonimlar ishtirokidagi frazeologik birliklar tilda obrazlilik, emotsional baholash va milliy tafakkur ifodachisi sifatida xizmat qiladi. Ular semantik jihatdan o'simlik obraziga asoslangan bo'lsa-da, pragmatik nuqtai nazardan qaralganda, so'zlovchining maqsadi, nutqning konteksti va madaniy fonda qanday vazifani bajarishi muhim hisoblanadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi fitonim asosidagi iboralarning pragmatik jihatdan tahlili ularning lingvistik xususiyatlari bilan birga madaniy qadriyatlar, kommunikativ strategiyalar va emotsional reaksiyalarni ham yoritib beradi. Shuningdek, bu iboralarni o'rganish madaniyatlararo kommunikatsiyani chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Raxmatullayev. "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati". O'qituvchi nashriyoti, Toshkent, 1978.

2. Joe Moran. "Shrinking Violets: The Secret Life of Shyness", Yale University Press, 2016.
3. Robert Kraus. "Leo the Late Bloomer", HarperCollins, 1971.
4. I. Azimov, N. Abduraxmonova, O. Yo'lbarsov. "Phraseologism with floristic component in English language".
5. William Macleod Raine. "The Sheriff's Son", 1918.
6. James Hall. "Legends of the West", Black Mask Online, 2002.
7. Shakespeare. "Sonnet 18".
8. Nurmammedov Y. "Frazologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari". Monografiya. SamDU, 2021.
9. G. Leech. "Principles of Pragmatics". Longman, 1983.
10. P. Grice. "Logic and Conversation", 1975.